Key words: Modern marketing, content marketing, email marketing, social media marketing (SMM), information retrieval systems.

Аннотация: В статье анализируются вопросы использования современных маркетинговых инструментов на международных рынках. Основное внимание уделяется омниканальному маркетингу, искусственному интеллекту (ИИ), цифровому таргетингу, маркетингу влияния, автоматизированным маркетинговым системам.

Ключевые слова: Современный маркетинг, контент-маркетинг, email-маркетинг, маркетинг в социальных сетях (SMM), информационно-поисковые системы.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashuv va raqamlashuv jarayonlari fonida korxonalar oldida bozorda faol ishtirok etish, raqobatbardosh mahsulotlar taklif qilish hamda iste'molchilarning tez o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish kabi muhim vazifalar turibdi. Aynan shu sharoitda marketing faoliyati, xususan, zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanish masalasi korxona faoliyati samaradorligini ta'minlovchi strategik omilga aylanmoqda.

Ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilar talabi markaziy o'rinni egallaydi va barcha ishlab chiqarish, savdo, reklama hamda xizmat ko'rsatish jarayonlari aynan mijoz ehtiyojlariga yo'naltiriladi. Bunday sharoitda an'anaviy marketing usullari yetarli samara bermasligi mumkin. Shu bois, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, raqamli tahlillarga tayanuvchi va tezkor muloqotni ta'minlaydigan marketing hamda kommunikatsiya vositalari bugungi kun talablari darajasidagi asosiy vositaga aylanmoqda.

Zamonaviy marketing vositalariga kontent marketing, elektron pochta marketingi (email marketing), ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM), axborotni qidirishga mo'ljallangan tizimlar optimallashtiruvi (SEO), internet-reklama (Google Ads, YouTube Ads, tizimli targetting), mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM), chat-botlar, inflyuenser marketing, reklama avtomatizatsiyasi va boshqa zamonaviy yondashuvlar kiradi. Ushbu vositalar yordamida korxonalar mijozlar bazasini aniqlashtirishi, ular bilan individual aloqalarni shakllantirishi, ehtiyojlarini tahlil qilishi va raqobat muhitida o'z mavqeini mustahkamlashi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy reklama — marketingning eng ta'sirchan yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, har bir muvaffaqiyatli brend ortida strategik asosda ishlab chiqilgan reklama kampaniyasi mavjud. Korxona imidjini shakllantirish, mijoz ongida brendni mustahkamlash, tovar va xizmatlar haqida axborot yetkazish, iste'mol talabini oshirish va savdo hajmini kengaytirish kabi vazifalar aynan reklama vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda televizion reklama, radioefirlar, bannerlar, tashqi reklama vositalari bilan bir qatorda raqamli tarmoqlardagi reklama kanallaridan foydalanish yanada yuqori samaradorlik bermiqda.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni raqamlashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, marketing va reklama sohalarini tartibga solishga qaratilgan yangi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ayniqsa, xususi sektorida kichik va o'rta biznes subyektlarining raqamli marketing platformalariga bo'lgan



qiziqishi ortib bormoqda. “Target reklama”, bloggerlar orqali marketing, videokontent marketingi kabi vositalar keng qo'llanmoqda.

Ta'lim va ilmiy tadqiqot sohalarida ham zamonaviy marketing vositalariga oid bilimlarni kengaytirish, amaliyotga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borish orqali milliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni targ'ib qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish bilan bog'liq masalalar Kotler P., Kartajaya H., Setiawan I., Huan H.D., Kumar V. va Mussry J. kabi xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan¹.

Filip Kotler — amerikalik iqtisodchi va zamonaviy marketing fanining asoschilaridan biri bo'lib, dunyodagi eng nufuzli marketologlardan hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari strategik marketing va brend boshqaruvi, ijtimoiy (social) va insonparvar (human-centric) marketing, nodavlat, davlat va fuqarolik sektorlarida marketing falsafasi, inson qadri, texnologiya va tajribaga asoslangan yangi marketing modellari hamda raqamli marketing evolyusiyasi (Marketing 4.0, 5.0, 6.0) kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ayniqsa, Kotlarning Marketing 4.0, 5.0 va 6.0 asarlari zamonaviy raqamli marketing evolyusiyasi, iqtisodiyotda transformatsion yondashuvlar va mijoz markazidagi marketing konsepsiyalarini yoritganligi bilan mashhur.

Hermawan Kartajaya — Indoneziyalik marketing mutaxassisi, MarkPlus, Inc. kompaniyasi asoschisi va boshqaruvchisi bo'lib, uning ilmiy faoliyati marketingni madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'lashga qaratilgan. U mintaqaviy va milliy brendlash, ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan marketing strategiyalari, marketing orqali jamiyatni rivojlantirish g'oyalarini ilgari surgan. Kartajayaning mashhur asarlari Filip Kotler bilan hammualliflikda yozilgan Marketing 3.0–6.0 konseptual ishlarida aks etgan.

Iwan Setiawan Indoneziyalik olim va marketing tadqiqotchisi bo'lib, raqamli texnologiyalar, foydalanuvchi xulq-atvori va statistik tahlil sohalarida faoliyat yuritgan. U omnichannel marketing, customer journey (mijoz sayohati) tahlili, digital engagement, brend ifodasi va foydalanuvchi tajribasi kabi mavzularda tadqiqotlar olib borgan. Setiawan Filip Kotler bilan birgalikda yozgan Marketing 4.0, 5.0 va 6.0 asarlarida raqamli transformatsiyaning jamiyat va iste'molchilarga ta'sirini keng tahlil qilgan.

Hooi Den Huan Singapurdagi Nanyang Technological University professori bo'lib, immersive marketing (AR/VR, metavers tajribasi), virtual tajriba dizayni, texnologiyaga asoslangan brend ifodasi va interaktiv marketing vositalari mavzularida tadqiqotlar olib borgan. U marketing sohasidagi yangi media vositalari va virtual muhitda foydalanuvchi ongini shakllantirishga oid izlanishlar bilan tanilgan. Uning ishlari Kotler bilan hammualliflikda yozilgan Marketing 6.0 asarida o'z ifodasini topgan.

V. Kumar AQShning Georgia State University professori bo'lib, u marketing analitikasi va mijoz ma'lumotlarini tahlil qilish bo'yicha yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari Customer Lifetime Value (mijozning hayotiy qiymati), Return on Investment (investitsiyadan daromad), predictive analytics (bashoratli tahlil) va mijozlar asosida strategik qaror qabul qilishga qaratilgan. Kumar marketing samaradorligini aniqlash, bozor segmentatsiyasi va raqamli strategiyalarning iqtisodiy samarasi kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borgan.

Jacky Mussry Indoneziyalik marketing va biznes strategiyasi bo'yicha ekspert bo'lib, u MarkPlus Institute direktori va MCorp vitse-prezidenti sifatida faoliyat yuritadi. Mussry operatsion menejment, korxonada faoliyatni optimallashtirish, transformatsiya va innovatsiyaga asoslangan tashkilot modeli, resilience (barqarorlik), operational agility (moslashuvchanlik) va umumiy samaradorlikni oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning mashhur Reimagining Operational Excellence asari korxonalarda samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilg'or modellarni taklif etadi.²

O'zbekistonda xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishning ayrim masalalari iqtisodchi olimlar A.Sh. Bekmurodov, M.S. Kasimova, Sh.J. Ergashxodjaeva, Ya.K. Karieva va I.A. Ahmedov tomonidan o'rganilgan.

1 Kotler, P., Kartajaya, H., & Setiawan, I. (2017). *Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital*. Wiley; Kotler, P., Kartajaya, H., & Setiawan, I. (2021). *Marketing 5.0: Technology for Humanity*. Wiley; Kotler, P., Huan, H. D., & Setiawan, I. (2024). *Marketing 6.0: The Future Is Immersive*. Wiley; Kotler, P., & Stigliano, G. (2024). *Redefining Retailing: 10 Guiding Principles for a Post-Digital World*. Wiley; Kotler, P., & Kumar, V. (2024). *Transformative Marketing: Achieving Superior Customer Engagement and Business Value*. Macmillan; Kotler, P., Kartajaya, H., & Mussry, J. (2024). *Reimagining Operational Excellence: New Strategies for a Resilient and Sustainable Business*. Wiley; Kotler, P., et al. (2024). *Humanism in Marketing – Responsible Leadership and the Human-to-Human Approach*. Springer; Kotler, P. (2024). *Marketing in the New Economy (Legend in Marketing Series)*. Vibrant Publishers.

2 Бекмуродов А.Ш. Эффективность маркетинга средств производства. Автореф. дис. докт. экон. – Т., 1993.; Karieva Ya.K. O'zbekistonni jahon bozoriga chiqish uchun xalqaro yo'laklardan samarali foydalanishning logistik transport muammolari. Iqt. fan. dok. diss. avtoref.-T., 2004.-44 b.; Ergashxodjaeva Sh. Bozor raqobati sharoitida qishloq joylarida kooperatsiyani rivojlantirishning marketing strategiyasi. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. –Toshkent: TDIU, 2007.; Ahmedov I.A. Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatida xalqaro marketingni faollashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. -T., 2021.-76 b.



A.Sh. Bekmurodovning ilmiy ishlarida B2B (Business to Business), B2C (Business to Consumer), C2C (Consumer to Consumer), B2G (Business to Government) va G2C (Government to Citizen) yo'nalishlarida marketingni rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirish, korxonalarda marketing faoliyatining natijadorligini baholash hamda iste'molchilarning faol xarid harakatlarini boshqarish masalalari yoritilgan.

Sh.J. Ergashxodjaeva o'z tadqiqotlarida raqobat sharoitida korxonalarning marketing faoliyatini takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish orqali savdo hajmini kengaytirish yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

I.A. Ahmedovning ilmiy izlanishlari korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatida xalqaro marketingni faollashtirishga qaratilgan bo'lib, unda tashqi bozorlarda marketing strategiyasini ishlab chiqish, xalqaro marketingni tadqiq qilish metodologiyasi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha korxonalarni diversifikatsiyalash modellari amaliy nuqtayi nazardan asoslab berilgan. Shuningdek, u zamonaviy marketing strategiyalarining tatbiqiy imkoniyatlarini ham atroflicha yoritgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy bilishning iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv tahlil kabi hamda boshqa tegishli uslublaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Marketing — bu korxona faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u bozordagi ehtiyoj va talabni aniqlash, ushbu ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish, ularni iste'molchilarga yetkazish hamda foyda olishni ko'zlagan kompleks jarayonlarni o'z ichiga oladi. Marketing faqat sotish faoliyati bilan cheklanmay, balki bozorni chuqur o'rganish, iste'molchi xulq-atvorini tahlil qilish va ular bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan strategik faoliyatdir.

Hozirgi zamonaviy sharoitda marketingning roli yanada ortib bormoqda. Korxonalar o'z raqobatbardoshligini saqlab qolish va mijozlar ehtiyojini to'liq qondirish uchun marketing strategiyalarini samarali shakllantirishga intilmoqda.

Marketingning ta'rifi, asosiy vazifalari va evolyutsiyasi ushbu sohaning murakkab, biroq nihoyatda muhim yo'nalish ekanini ko'rsatadi. U har qanday biznesning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan strategik vosita hisoblanadi. Bugungi raqobat muhiti sharoitida iste'molchiga moslashish, uning ehtiyojlarini chuqur o'rganish va ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Zamon talablariga mos ravishda raqamli platformalar, sun'iy intellekt va tahlil vositalari marketingning ustuvor yo'nalishlariga aylanmoqda.

Marketing o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir necha bosqichlardan o'tgan. Har bir bosqich o'ziga xos xususiyatlari, biznes modeli va mijozga bo'lgan munosabati bilan ajralib turadi. Quyidagi jadvalda ushbu bosqichlar batafsil yoritiladi (1-jadval).

1-jadval. Marketing konsepsiyalarining solishtirma jadvali³

Bosqich	Davr	Asosiy shiori	Asosiy e'tibor markazida	Kamchiliklari
1. Ishlab chiqarish konsepsiyasi	1900 -1930 y.	Arzon va ko'p ishlab chiqar	Ishlab chiqarish samaradorligi	Mijozning turli ehtiyojlarini inkor qilinadi
2. Tovar konsepsiyasi	1930 -1950 y.	Mijoz sifatli tovarni hohlaydi	Texnologiya va sifat	Mijoz fikri kam hisobga olinadi
3. Sotish konsepsiyasi	1950 -1970 y.	Tovarni ko'proq sotish kerak	Agressiv reklama va sotuv	Mijoz sodiqligi juda past
4. Marketing konsepsiyasi	1970 -2000 y.	Mijoz - doimo haq	Iste'molchi va unga qiymat yaratish	Raqobat shiddatli, tadqiqotlar yuqori harajatli
5. Ijtimoiy marketing konsepsiyasi	1970 - yildan hozirga qadar	Faqat mijoz emas, jamiyat manfaatlari ham muhim	Jamiyat, atrof muhit, ijtimoiy mas'uliyat	Yuqori xarajatli, KPI ni aniqlash qiyin
6. Raqamli va intellektual marketing konsepsiyasi	2015 -yildan hozirga qadar	Mijoz internetda tovar va reklama, sotuv ham u yerda	Big Data, SMM, SEO, onlayn platforma, avtomatlashtirish	Texnologik xatarlar, shaxsiy ma'lumotlarni saqlash, yuqori raqobat muammosi

3 Muallif tomonidan tuzilgan.



Bugungi keskin raqobatlashgan bozor sharoitida an'anaviy marketing usullari yetarli darajada samara bermayapti. Shu bois, bozor ishtirokchilari — korxonalar va tashkilotlar zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda.

"Zamonaviy marketing — bu raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yordamida inson ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan markazlashtirilgan tizimdir"⁴.

Zamonaviy marketing — bu raqamlashtirilgan dunyoda mijozlar ehtiyojlarini aniqlash, ular bilan interaktiv aloqalarni yo'lga qo'yish hamda uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan usuldir.

Bugungi global raqobat sharoitida har qanday korxona marketing faoliyatini raqamlashtirish, mijozlar bilan barqaror aloqalarni yo'lga qo'yish va samaradorlikni oshirish maqsadida zamonaviy marketing vositalaridan keng foydalanishi zarur. Zamonaviy marketing vositalari faqat an'anaviy reklama, fokus-guruhlar va sotuvni rag'batlantirish bilan cheklanmay, balki raqamli platformalar, ma'lumotlar tahlili, CRM tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlar va ijtimoiy tarmoqlar marketingi kabi texnik imkoniyatlar orqali bozordagi raqobatbardoshlikni mustahkamlashni nazarda tutadi.

Quyidagi jadvalda zamonaviy marketing vositalari, ularning paydo bo'lgan davri, asosiy funksiyalari, afzalliklari va qo'llanilish sohalari batafsil tahlil qilinadi (2-jadval).

2-jadval. Zamonaviy marketing vositalari va ularning rivojlanishi⁵

№	Vosita nomi	Paydo bo'lgan yili	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Qo'llanilish sohasi
1	TV va radio reklama	1930-1950 y.	Katta auditoriyaga keng qamrovli ta'sir qilish	Imidj yaratish, yuqori ta'sir, taniqlilik	Brend yaratish, savdo, bank, avtosanoat
2	BTL targ'ibot	1960-y.	Offlayn shaxsiy aloqa— degustatsiya, namoyishlar, taqdimot	Jonli taassurot, brending, mahalliy ishonch	FMCG, ichiluvchi mahsulotlar, kosmetika
3	Email-marketing	1978 y.	Elektron pochta orqali axborot va takliflarni yuborish	Arzon, avtomatlashtirish oson, shaxsiylashtirish mumkin	B2B va B2C, servislari, onlayn savdo, ta'lim
4	CRM	1990-y.	Mijozlar bilan munosabatni saqlash va tahlil qilish	Mijoz sodiqligi oshadi, ma'lumotlar tizimlashtiriladi	Avtomobil, bank, sug'urta, e-commerce
5	SEO	1997 y.	Veb-saytni qidiruv tizimlarida yuqori o'ringa chiqarish	Tabiiy trafik, uzoq muddatli foyda, ishonch uyg'otadi	Veb-saytlar, internet do'konlar, bloglar
6	Google Analytics	2005 y.	Veb-sayt trafiginini kuzatish, tahlil qilish	Real vaqtda tahlil, kanal samaradorligini o'lchaydi	Barcha veb-saytlar, kontent platformalar
7	Mobile Marketing	2007 y. (iPhone)	Smartfonlar orqali push-xabar, SMS, mobil ilova orqali reklama yuborish	Joyida va real vaqtda aloqa, geo-targeting imkoni	Retail, xizmat ko'rsatish, yetkazib berish xizmatlari
8	PPC (Google Ads)	2000 y.	Klik uchun pul to'lab, maqsadli auditoriyaga reklama yetkazish	Tez natija, targetlash imkoni, ROI aniq hisoblanadi	Internet do'konlar, xizmatlar, startaplar
9	Kontent marketing	2000-y.	Foydali, qiziqarli materiallar orqali mijozni jalb qilish	Uzoq muddatli ishonch, SEO ni qo'llab-quvvatlaydi, bilimli brend imidji	Barcha sohalari: ta'lim, savdo, xizmat ko'rsatish
10	SMM	2004 y. (Facebook)	Ijtimoiy tarmoqlarda brendni targ'ib qilish va auditoriya bilan aloqa o'rnatish	Aniq targeting, interaktiv aloqa, virusli tarqalish imkoni	Instagram, Facebook, TikTok, Telegram, YouTube
11	Marketing Automation	2006 y.	Marketing jarayonlarini avtomatik ravishda boshqarish	Sog'lom A/B testlash, vaqt tejash, integratsiya imkonlari	Onlayn do'konlar, yirik mijoz bazalari

⁴ Kotler, P., Kartajaya, H., Setiawan, I. Marketing 5.0: Technology for Humanity. Wiley, 2021

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.



12	Influencer Marketing	2010 y.	Mashhur shaxslar orqali mahsulot yoki brendni targ'ib qilish	Ishonch uyg'otadi, virusli targ'ibot, personal ta'sir	Moda, kosmetika, turizm, texnologiyalar
13	QR-kodli bukletlar	2010 y.	Offlayn reklamaga raqamli kanalni qo'shish	Tez o'tish, tezkor faoliyat, AR va mobil integratsiya	Turizm, ko'rgazma, ta'lim, restoran va h.k.
14	Growth Hacking	2010 y.	Kreativ va arzon usullar bilan auditoriyani tez kengaytirish	Startaplar uchun samarali, tez ta'sir	"Software as a Service", ya'ni "Xizmat sifatida taqdim etiladigan dasturiy ta'minot", tech-startup, mobil ilovalar
15	Omni-channel Marketing	2012 y.	Barcha kanallarda uyg'un tajriba yaratish	Barqarorlik, mijozda yaxshi taassurot qoldiradi	Retail, kafelar, onlayn, offlayn xizmatlar
16	Gamification	2013 y.	O'yin elementlari orqali qiziqish uyg'otish va ishtirokni oshirish	Interfaollik, motivatsiya, fidbek oshadi	Til o'rganish, ta'lim, sog'liq, mobil ilovalar
17	Personalization	2014 y.	Mijozga shaxsiy taklif va kontent taqdim etish	Ishonchni oshiradi, smodqlikni kuchaytiradi	Onlayn savdo, striming, bilim, xizmat ko'rsatish
18	Hotjar, Heatmaps	2014 y.	Foydalanuvchi qaysi sahifada, qaerda ko'proq klik qilganini ko'rish	Foydalanuvchi tajribasini tahlili, sayt dizaynini optimallashtirishda yordam beradi	Veb-dizayn, internet do'konlar
19	Chatbot'lar	2016 y.	24/7 avtomatik javob berish va xizmat ko'rsatish	Xizmat tezligi, inson resursini tejaydi, har doim ishlaydi	E-commerce, bank, ta'lim, xizmatlar
20	AI-assistentlar (ChatGPT)	2020 y.	Kontent yaratish, savollarga avtomatik javob berish	Samaradorlik, vaqt tejamkorlik, shaxsiylashtirish imkoni	Ta'lim, marketing, xizmat ko'rsatish, veb-saytlar

Korxonada xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishni quyidagi yo'llar orqali amalga oshirish mumkin:

1. Marketing strategiyasini raqamlashtirish. Avvalo, korxonaning marketing strategiyasi raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi zarur. Bunga maqsadli auditoriyani aniqlash, raqobatchilarni tahlil qilish va raqamli kanallar orqali brend strategiyasini ishlab chiqish kiradi. Masalan, B2C yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar Instagram va TikTok kabi vizual platformalarda faol bo'lishi kerak. B2B kompaniyalar esa LinkedIn tarmog'i va elektron pochta marketingiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

2. CRM tizimlarini joriy etish. Mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash va shaxsiylashtirilgan marketingni yo'lga qo'yish uchun CRM (Customer Relationship Management) tizimlarini joriy etish zarur. CRM orqali mijozlarning xarid tarixi, qiziqishlari va aloqa ma'lumotlari yig'iladi. Bu esa sotuv hajmini 25–40 % gacha oshirish imkonini beradi.

3. Kontent-marketingni rivojlantirish. Kontent-marketing zamonaviy marketingning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu orqali korxona o'z auditoriyasiga bilim, ishonch va qiymat yetkazadi. Bloglar, videoroliklar, infografikalar va podkastlar — barchasi mijozlar bilan barqaror aloqalarni shakllantiradi. Masalan, mahalliy kosmetika brendi haftalik "terini parvarishlash bo'yicha maslahatlar" videosi orqali YouTube kanalida 100 000 dan ortiq obunachiga ega bo'lgan.

4. Ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM). Korxona o'z mahsulot va xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazish uchun Facebook, Instagram, Telegram va TikTok tarmoqlaridan faol foydalanishi lozim. SMM vositasida mijozlar bilan bevosita muloqot qilish, fikr-mulohazalar yig'ish, tanlovlar va aksiyalar o'tkazish mumkin. Masalan, "Murad Buildings" qurilish kompaniyasi Instagram orqali uy-joylarni reklama qilish orqali mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kirishib, onlayn bronlash xizmatidan foydalanuvchilar sonini ikki baravar oshirgan.

5. Raqamli reklama kanallaridan foydalanish. Google Ads, Meta Ads (Facebook/Instagram), YouTube va Telegram botlari orqali maqsadli reklama joylashtirish mumkin. Bu orqali xaridga tayyor auditoriyani aniq yo'naltirish mumkin bo'ladi. Targeting, retargeting, A/B testlash, klik va konversiya tahlili vositalari reklama



samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, kichik tikuvchilik korxonasi Google Ads orqali “maktab formasi” bo'yicha reklama berib, 10 kun ichida 1200 dan ortiq buyurtma olgan.

6. Email marketing va avtomatlashtirilgan aloqa tizimlari. Email marketing — arzon, tez va yuqori ROI (Return on Investment)ga ega bo'lgan samarali kanal hisoblanadi. Korxona mijozlarga yangiliklar, individual takliflar, tavsiyalar va hisobotlarni avtomatik tarzda yetkazishi mumkin. Buning uchun Mailchimp, GetResponse, SendPulse kabi platformalar qo'llaniladi. Ushbu tizimlar foydalanuvchi faolligiga qarab avtomatik tarzda “vakansiyalar”, “chegirmalar” yoki “savol-javoblar” yuborish imkonini beradi.

7. Analitika va marketing samaradorligini baholash. Zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishda natijalarni muntazam baholab borish muhim ahamiyatga ega. Google Analytics, Facebook Insights, Yandex Metrica kabi platformalar yordamida marketing faoliyatining natijalari, trafik manbalari, foydalanuvchi xatti-harakatlari va mijozlar oqimi tahlil qilinadi. Bu esa strategik qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish va byudjetni eng samarali kanallarga yo'naltirish imkonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xalqaro bozorlarda marketing faoliyatining mazmun va shaklini tubdan o'zgartirmoqda. Aynan shu sharoitda zamonaviy marketing vositalarining roli ortib, ular mahsulot va xizmatlarni samarali targ'ib qilish, yangi mijozlarni jalb etish, mavjud mijozlarni saqlab qolish hamda bozordagi raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda.

Zamonaviy marketing vositalari — bu faqat internetda reklama joylashtirish bilan cheklanmay, balki mijozlar bilan har tomonlama, shaxsiy va interaktiv munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan tizimdir. Xususan, elektron pochta marketingi (Email Marketing), ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing (SMM), izlash tizimlari orqali optimallashtirish (SEO/SEM), avtomatlashtirilgan marketing tizimlari (Marketing Automation), inflyuenser marketingi va shaxsiylashtirilgan takliflar (Personalization) xalqaro bozorlardagi asosiy raqamli vositalar sirasiga kiradi.

Xalqaro bozorlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar ushbu vositalar orqali turli davlatlardagi mijozlar bilan individual muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, Amazon, Nike, Apple va Samsung kabi yetakchi brendlar barcha kanallarni uyg'unlashtirgan marketing strategiyalari asosida veb-saytlar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va oflayn savdo nuqtalari orqali yagona foydalanuvchi tajribasini shakllantirib, global mijozlar bazasini kengaytirishga erishmoqda. Ushbu yondashuvlar nafaqat sotuv hajmini oshiradi, balki brendga nisbatan ishonch va mijoz sadoqatini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, raqamli marketing vositalari orqali real vaqt rejimida mijozlarning xulq-atvori tahlil qilinib, ularning ehtiyoj va afzalliklariga mos kontent, maxsus taklif yoki reklama materiallari ishlab chiqiladi. Bu esa xalqaro miqyosda turli madaniyat, til va iste'mol psixologiyasiga moslashgan marketing strategiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Misol tariqasida, Netflix foydalanuvchilarga til va hudud asosida kontent tavsiya etadi, Starbucks esa har bir mamlakat uchun maxsus QR-kodli ilovalar va lokal aksiyalarni taklif etadi.

Shuningdek, xalqaro marketing amaliyotida mijoz fikrini to'plash va tahlil qilish (feedback analytics), foydalanuvchi tajribasini baholash (UX analytics), interaktiv xarita (Heatmap) va A/B testlar orqali konversiyani oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Ayniqsa, Hotjar, Google Analytics va Microsoft Clarity kabi vositalar veb-sayt faoliyatidagi to'siq va zaif joylarni aniqlash, foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda natijadorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalarini joriy etishda ayrim murakkabliklar mavjud. Jumladan, turli mamlakatlarda amal qiluvchi yuridik cheklovlar (masalan, GDPR, kuki siyosati), til va madaniyat farqlari, texnik infratuzilmaning rivojlanmaganligi, shuningdek, aholining raqamli savodxonlik darajasi marketing faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli har bir yangi bozorda faoliyat boshlashdan avval chuqur bozor tahlili, lokalizatsiya siyosati va maqsadli auditoriyani aniqlash ishlari amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanish — bu global raqobatda ustunlikni qo'lga kiritish, mijozlarga sifatli va shaxsiylashtirilgan tajriba taqdim etish, brend qadrini mustahkamlash hamda daromad oqimini kengaytirishning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Marketing strategiyalarini texnologik imkoniyatlar, madaniy farqlar va inson psixologiyasini hisobga olgan holda shakllantirish esa kompaniyaning barqaror muvaffaqiyati garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bekmurodov A.Sh. - Marketing nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2021.
2. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Yusupov M. Marketing. Darslik. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi”, 2024, 372 bet.



3. Philip Kotler, Hermawan Kartajaya, Iwan Setiawan Marketing 6.0: AI for Human Wellbeing Wiley Publishing, 2024.
4. Chaffey, Dave Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice, 9th Edition Pearson Education, 2024.
5. Lemon, Katherine N. & Verhoef, Peter C. Customer Experience Management in the Age of AI Harvard Business Review Press, 2025 (expected).
6. Kannan, P. K., & Li, Hongshuang (Alice) AI-Driven Marketing in Global Contexts Springer, 2024.
7. Philip Kotler, Kevin Lane Keller — Marketing Management, 15th edition, Pearson Education, 2016.
8. Jean-Pierre Jeannet, H. David Hennessey — Global Marketing Strategies, 6th edition, Houghton Mifflin, 2004.
9. Keegan, Warren J. — Global Marketing Management, 8th edition, Pearson Education, 2014.
10. Al Ries & Jack Trout — Positioning: The Battle for Your Mind, McGraw-Hill, 2000.
11. Hermawan Kartajaya, Philip Kotler, Iwan Setiawan — Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital, Wiley, 2017.
12. Iwan Setiawan, Philip Kotler, Hermawan Kartajaya — Marketing 5.0: Technology for Humanity, Wiley, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
